Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 342

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI: KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLAR VA ULARNI AMALDA TA’MINLANGANLIK MUAMMOLARI

Maxtumquli Mirzaqulovich Turdiqulov*

Farg‘ona davlat universiteti Huquqshunoslik fakulteti o‘qituvchisi

✉ maxtumqulidomla@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kontekstida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari tizimi, ularning huquqiy tabiati hamda kafolatlanish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Davlat rahbarining sohaga oid ma’ruzalari, milliy qonunchilik normalari va xalqaro andozalar integratsiyasi qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog‘iston va Qirg‘iziston) tajribasi bilan solishtirma tahlilllar olib borilgan.

Kalit so‘zlar

shaxsiy huquqlar, inson qadri, Konstitutsiya, Miranda qoidasi, Xabeas korpus, qiyosiy tahlil, Konstitutsiyaviy sud, Ombudsman, raqamli daxlsizlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23886015

KIRISH

Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, uning huquqiy maqomini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish zamonaviy demokratik davlatchilikning eng muhim shartlaridan biridir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda inson qadri, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi [1]. Shaxsiy huquqlar tushunchasi insonning tabiiy, ajralmas imkoniyatlari majmui bo‘lib, u davlatning tan olishi yoki berishidan qat’i nazar, har bir shaxsga tug‘ilganidan boshlab tegishlidir. Inson huquqlari ustuvorligi faqatgina deklarativ normalarda emas, balki huquqni qo‘llash amaliyotida, tergov va sud idoralarining kundalik faoliyatida o‘z aksini topishi shart va bu huquqiy nigilizm elementlari kelib chiqmasligiga sabab bo‘ladi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida va Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomalarida «Inson qadri uchun» tamoyilini davlat siyosatining bosh mezoni sifatida belgilab berdi [2]. Prezidentimiz o‘z nutqlarida sud mustaqilligini ta’minlash, tergov jarayonida qonun ustuvorligiga erishish va fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvlarni taqiqlash masalalarini muntazam ravishda ilgari surib kelgan bo‘lib, bu siyosiy-huquqiy iroda yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda konseptual normalar sifatida muhrlandi va ijro hokimiyati tizimi uchun qat’iy belgilangan ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi bevosita inson va fuqaroning asosiy huquqlari,

erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Shaxsiy huquqlar kontekstida 24, 25, 26 va 27-moddalar ustuvor ahamiyatga ega. Jumladan, 24-moddada yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi va unga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat deb hisoblanishi belgilandi. Mazkur norma O‘zbekistonda o‘lim jazosining mutlaq taqiqlanishini konstitutsiyaviy darajada kafolatladi [1]. Konstitutsiyaning 25-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi, hech kim sud qarorisiz ushlab turilishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emasligi mustahkamlangan. Bu «Xabeas korpus» institutining yanada kengaytirilganidan dalolat beradi. 26-modda esa xalqaro yuridik amaliyotda tan olingan «Miranda qoidasi»ni o‘z ichiga olib, shaxs ushlab turilgan vaqtida uning huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi shartligini qat’iy belgilaydi. 27-moddadagi shaxsiy hayot daxlsizligi, xat-xabarlar va boshqa muloqotlar maxfiyligi kafolatlari esa raqamli asrda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning eng muhim poydevori ekanligi qayd qilingan [1].

Milliy qonunchiligimizdagi shaxsiy huquqlar himoyasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari bilan to‘liq uyg‘unlik tashkil etadi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (3, 9, 12-moddalari) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt normalari milliy Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvaffaqiyatli implementatsiya qilingan [5, 6]. Shu bilan birga, ichki qonunchilik tizimida tergov organlari va sudlarning majburiyatlari qat’iylashtirildi. Noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillarning yuridik kuchga ega emasligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoida jinoyat protsessida fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi usullardan foydalanishga chek qo‘yishning huquqiy to‘sig‘idir. Bu esa xalqaro hamjamiyat oldida O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha majburiyatlariga sodiqligini yana bir bor isbotlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsiy huquqlar kafolatining Markaziy Osiyo davlatlari kesimidagi qiyosiy-huquqiy tahlili

Mintaqaviy huquq tizimlarini solishtirish orqali milliy qonunchilikning yutuq va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning yangilangan konstitutsiyaviy normalari shaxsiy erkinliklarni himoya qilishda turlicha yondashuvlarga ega. Quyidagi jadvalda ushbu tizimli farqlar batafsil tasniflangan.

1-jadval. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda shaxsiy huquqlar kafolatlarining qiyosiy tahlili

Qiyoslash mezonlari	O‘zbekiston Respublikasi	Qozog‘iston Respublikasi	Qirg‘iziston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat	Mutlaq imkoniyat berildi. Fuqarolar agar qonun ularning huquqlarini buzgan deb hisoblasa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shikoyat qila oladilar [4, 78-b.].	2023 yildan tiklandi. Fuqarolar o‘z huquqlarini kamsituvchi normativ hujjatlar bo‘yicha murojaat qilish huquqiga ega [7, 83-b.].	Konstitutsiyaviy sud palatasi faol. Fuqarolarning shikoyatlari asosida qonunlarning mosligi tizimli ko‘rib chiqiladi [8, 104-b.].
Ombudsman instituti vakolatlari	Qonunchilik tashabbusi kengaytirildi. Penitensiar muassasalarga to‘siqsiz kirish va taklif kiritish vakolatiga ega.	Alohida konstitutsiyaviy maqom. Inson huquqlari bo‘yicha vakil daxlsizlik huquqiga va mustaqil tekshirish vakolatiga ega.	Akiykatchi tizimi. Ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda, ayniqsa fuqarolik jamiyati faollari huquqlari himoyasida an’anaviy faol.
O‘lim jazosini taqiqlash	Mutlaq taqiqlangan (24-modda). Bu norma hech qachon qayta tiklanmasligi qat’iy kafolatlangan [1, 12-b.].	To‘liq bekor qilingan (2022). Xalqaro paktlar va ichki konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan [7, 45-b.].	Mutlaq taqiqlangan (23-modda). Hech kim hayotdan mahrum etilishi mumkin emasligi mustahkamlangan [8, 19-b.].
”Miranda qoidasi” va ”Xabeas korpus”	Sud qarorisiz ushlab turish muddati maksimal 48 soat etib belgilangan, huquqlar darhol tushuntiriladi [1, 14-b.].	Sud qarorisiz ushlab turish muddati 72 soat (voyaga yetmaganlar uchun 48 soat) etib belgilangan [7, 48-b.].	Sud qarorisiz ushlab turish muddati maksimal 48 soat etib qat’iy belgilangan [8, 22-b.].

Huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolar

Konstitutsiyaviy darajadagi yutuqlarga qaramay, huquqni qo‘llash amaliyotida fuqarolarning shaxsiy huquqlarini to‘liq kafolatlashda muayyan muammolar hali-hanuz saqlanib qolayotganligi. «Ayblov og‘machiligi» (obvinitelniy uklon) kuzatilmoqda. Sud jarayonlarida oqlov hukmlarining foizi ortgan bo‘lsa-da, shaxs erkinligini cheklash usullaridan (qamoqqa olish) muqobil ehtiyot choralariga nisbatan ko‘proq foydalanilmoqda.

Raqamli texnologiyalar asrida shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi xavf ostida qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va kibermakonda fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlarni qonunsiz tarqatish, kiberbulling va shaxsiy yozishmalar daxlsizligini buzish holatlari ko‘paygan. Mavjud axborot xavfsizligi mexanizmlari ushbu yangi turdagi tahdidlarga tezkor yuridik munosabat bildirishda qonunchilik bo‘shliqlariga ega ekanligini ko‘rsatmoqda [9].

Kiberbulling (internet-zoravonlik) — bu raqamli texnologiyalar (internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn o‘yin platformalari va mobil telefonlar) orqali bir shaxsni qasddan, tizimli va davomli ravishda ta’qib qilish, kamsitish, qo‘rqitish yoki obro‘sizlantirishdir. Xalqaro tashkilotlar ta’rifiga ko‘ra, kiberbulling maqsadli xulq-atvor modeli bo‘lib, jabrlanuvchiga ruhiy va ehtimoliy jihatdan jiddiy zarar yetkazishga qaratilgan.

Kiberbullingning asosiy shakllari: Trolling: Insonning jahlini chiqarish va kuchli his-tuyg‘ularga berilishga majbur qilish uchun ataylab provokatsion, haqoratli sharhlar yozish. Kibermobbing: Bir guruh shaxslar tomonidan internetda birgalikda jamoaviy tarzda olib boriladigan onlayn hujum yoki ta’qib. Doksing (Auting): Shaxsning roziligisiz uning shaxsiy ma’lumotlarini (manzili, telefon raqami, sirli yozishmalari yoki shaxsiy fotosuratlarini) internetga oshkor qilish yoki ”sliv” qilish. Kiberstalking: Internet tarmog‘i orqali shaxsni yashirincha va muntazam kuzatib borish, unga tinimsiz tahdidli yoki nazar-pisand qilmaydigan xabarlar yuborish.

Advokatura institutining sud va dastlabki tergov organlari bilan protsessual tengligini amaliyotda to‘liq ta’minlanmaganligi. Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalar samaradorligini susaytirmoqda. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlash masalalari bo‘yicha takliflar:

XULOSA

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda inson huquq va erkinliklarini xalqaro andozalar va ilg‘or demokratik tamoyillar asosida himoya qilishning yangi davrini boshlab berdi. Bosh qomusimizda «Miranda qoidasi», «Xabeas korpus» va o‘lim jazosining mutlaq taqiqlanishi kabi konseptual normalarning muhrlanishi davlatning inson qadrini oliy mezon sifatida tan olishidan dalolatdir.

Biroq, konstitutsiyaviy darajadagi mazkur yutuqlar huquqni qo‘llash amaliyotida kundalik reallikka to‘liq aylanishi uchun milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlarni tizimli ravishda bartaraf etish zarur. Jinoyat protsessida advokat va prokuror o‘rtasidagi real tenglikka erishish, sudlar faoliyatidagi «ayblov og‘machiligi»dan butunlay voz kechish va raqamli asrda fuqarolarning kibermakondagi shaxsiy hayoti daxlsizligini yangi turdagi tahdidlardan (kiberbulling, doksing, dipfeyk) himoya qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Endigi ustuvor qadam — konstitutsiyaviy kafolatlarning sohaviy qonun hujjatlarida va tergov-sud idoralari kundalik faoliyatida so‘zsiz bajarilishini ta’minlaydigan, jamoatchilik va parlament nazoratiga asoslangan shaffof mexanizmlarni yaratishdan iboratdir. Faqatgina qonun ustuvorligi va huquqiy nigilizmga qarshi murosasiz kurash orqali yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning insonparvarlik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoni mavjud bo‘ladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashni davlat siyosatining oliy mezoni sifatida mustahkamladi. Biroq, konstitutsiyaviy normalarning ijro etilish samaradorligi sohaviy qonunchilikning mukammalligi va huquqni qo‘llash amaliyotining shaffofligi bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari va solishtirma-huquqiy tahlillar asosida milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 72 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. // Xalq so‘zi, 2022 yil 8 dekabr.

4. Milliy huquq tizimida konstitutsiyaviy odil sudlov islohotlari: Nazariya va amaliyot. / Mas’ul muharrir K.Beknazarov. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2024. – 215 b.

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi 217 A (III) rezolyutsiyasi.

6. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasining 1966 yil 16 dekabrdagi 2200 A (XXI) rezolyutsiyasi.

7. Dupont, L. Digital Privacy and Protection of Personal Data in Modern Constitutionalism. // Journal of Cyber Law and Human Rights, Oxford University Press, 2023. – Vol. 14, Issue 2. – P. 112-128.

8. Johnson, R. Judicial Independence and Procedural Equality in Central Asian Legal Systems. – London: Routledge, 2025. – 310 p.

9. Müller, A., & Karimova, N. Implementation of the Miranda Rule and Habeas Corpus Institutes: A Comparative Legal Study of Post-Soviet States. // Central Asian Law Review, 2025. – No. 3. – P. 45-59.

10. Smith, J. Evolution of Personal Freedoms and Constitutional Guarantees in Central Asia. // International Journal of Comparative Law, 2024. – Vol. 32, No. 1. – P. 74-91.